



STATE POLICY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION IN UZBEKISTAN: INSTITUTIONAL AND ORGANIZATIONAL BASIS

Gulkhayo Ibodullayeva

*Independent researcher at the
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: religious education, state policy, institutional foundations, organizational mechanisms, regulatory framework, religious tolerance, spiritual education, combating extremism, prevention of radicalism, educational institutions, religious organizations, national values, modernization, international experience, religious values, harmony of secular and religious education, confession, qualified personnel.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article analyzes the institutional and organizational framework of state policy in the field of religious education in Uzbekistan. It will cover the regulatory framework governing the religious education system, the activities of authorized state bodies, and the role of educational institutions. Issues of ensuring religious tolerance and developing educational approaches to countering extremism and radicalism will also be considered. The importance of modernizing religious education, implementing international experience, and maintaining the harmony of national values is substantiated. The importance of religious and educational factors in ensuring stability in the field and educating young people is revealed. Attention is paid to the analysis of the concept of education in the Republic of Uzbekistan, the concept of religious and secular education, the right and foundations of education, the possibilities of religious education, the institutional and organizational-legal foundations of religious and secular education.

O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA TASHKILY ASOSLAR

Gulxayo Ibodullayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: diniy taʼlim, davlat siyosati, institutsional asoslar, tashkiliy mexanizmlar, normativ-huquqiy baza, diniy bagʻrikenglik, maʼnaviy tarbiya, ekstremizmga qarshi kurash, radikalizm profilaktikasi, taʼlim muassasalari, diniy tashkilotlar, milliy qadriyatlar, modernizatsiya, xalqaro tajriba diniy qadriyat, dunyoviy va diniy taʼlim uygʻunligi, konfessiya, malakali kadr.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbekistonda diniy taʼlim sohasida davlat siyosatining institutsional va tashkiliy asoslarini tahlil qilinadi. Unda diniy taʼlim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza, vakolatli davlat organlari faoliyati hamda taʼlim muassasalarining oʻrni yoritiladi. Shuningdek, diniy bagʻrikenglikni taʼminlash, ekstremizm va radikalizmga qarshi maʼrifiy yondashuvlarni rivojlantirish masalalari koʻrib chiqiladi. Diniy taʼlimni modernizatsiya qilish, xalqaro tajribalarni joriy etish va milliy qadriyatlar uygʻunligini saqlash muhimligi asoslab beriladi. Sohada barqarorlikni taʼminlash va yoshlar tarbiyasida diniy-maʼrifiy omillarning ahamiyati ochib beriladi. Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tushunchasi, diniy va dunyoviy taʼlim tushunchasi, taʼlim olish huquqi va asoslari, diniy taʼlim olish imkoniyatlari, diniy va dunyoviy taʼlim olishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilishga eʼtibor qaratiladi.

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ
ОСНОВЫ**

Гулхаё Ибодуллаева

Независимый соискатель

Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: религиозное образование, государственная политика, институциональные основы, организационные механизмы, нормативно-правовая база, религиозная толерантность, духовное воспитание, борьба с экстремизмом, профилактика радикализма, образовательные учреждения, религиозные организации, национальные ценности, модернизация, международный опыт, религиозная ценность, гармония светского

Аннотация: В данной статье анализируются институциональные и организационные основы государственной политики в сфере религиозного образования в Узбекистане. В нем освещается нормативно-правовая база, регулирующая систему религиозного образования, деятельность уполномоченных государственных органов и роль образовательных учреждений. Также будут рассмотрены вопросы обеспечения религиозной толерантности,

и религиозного образования, конфессия, квалифицированные кадры.

развития просветительских подходов к противодействию экстремизму и радикализму. Обосновывается важность модернизации религиозного образования, внедрения международного опыта и сохранения гармонии национальных ценностей. Раскрывается значение религиозно-просветительских факторов в обеспечении стабильности в сфере и воспитании молодежи. Особое внимание уделяется анализу понятия образования в Республике Узбекистан, понятия религиозного и светского образования, права и основ получения образования, возможностей получения религиозного образования, институциональных и организационно-правовых основ получения религиозного и светского образования.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida din va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamiyat barqarorligi, ijtimoiy taraqqiyot va ma'naviy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda diniy ta'lim sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

Shuningdek, sohada mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Ilm olish, uning natijalarini hayotga tatbiq etish zamon talabi bo'lishi bilan birga, asrlar davomida xalqimizning kundalik yumushi, iymon-e'tiqodiga aylangan qadriyat hisoblanib, ilm egalari doimo sharaflanadi. Ilm turfa xil qarash va yondashuvlarga ega shaxslar, jamoalar, jamoat tashkilotlarining o'zaro sog'lom kurashi o'laroq raqobat muhitida tez rivojlanadi. Davlat esa taraqqiyotga homiylik qiladi, sharoit yaratib imkoniyatlar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi har kimning bilim olish huquqiga ega ekanligi, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, maktab ishlari davlat nazoratida ekanligini kafolatlaydi [1].

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun esa ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi prinsipini e'tirof etib, ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon deb ta'rif beradi. Ta'lim olish huquqi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va

ijtimoiy mavqedan qat'i nazar, hammaga teng kafolatlanishini, ta'lim olish huquqi: ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish; ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovasion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish; kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish; oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanishini nazarda tutadi[2].

Muhokama va natijalar. O'zbekiston ko'pmillatli va ko'p konfessiyali davlat hisoblanib, mamlakatda umumiy o'rta ta'lim yetti xil tilda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining turli milliy tillarda olib borilishi Konstitutsiya tomonidan kafolatlangan bo'lib, bu hududda yashayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar hamda an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularning erkin rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. "Ta'lim", "bilim" va "ilm" tushunchalari mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular o'ziga xos farqlarga ega. O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilishicha, "ta'lim" – bu bilim berish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, insonni hayotga hamda mehnat faoliyatiga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi [3]. "Ilm" esa o'qish, o'rganish va ilmiy izlanishlar natijasida qo'lga kiritiladigan chuqur bilim hamda nazariy tushunchalarni anglatadi [4].

Amaliy jihatdan "ilm" ko'proq fundamental tadqiqotlar olib borish va diniy manbalarni chuqur tahlil qilish bilan bog'liq bo'lsa, "ta'lim" davlat tomonidan belgilangan standartlarga muvofiq tashkil etiladigan o'quv jarayonini ifodalaydi. Islom ta'limotida ham ilm olishga alohida ahamiyat berilib, u har bir musulmon uchun majburiyat sifatida talqin qilinadi. Qur'oni Karimning ilk nozil qilingan oyati "Iqro" ("o'qi") so'zi bilan boshlanishi ilmning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Tarix davomida musulmon allomalari ilm o'rganish va uni keng targ'ib qilishga ulkan hissa qo'shganlar. Jumladan, Abu Lays Samarqandiy "Bilgilki, har bir muslim va muslimaga din ishlarida muhtoj bo'ladigan tahorat, namoz va shariatning boshqa hukmlari hamda hayotiy ishlarida zarur bo'lgan narsalarni biladigan miqdorda ilm o'rganish farzdir", deya, har bir inson o'z diniy va hayotiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi lozimligini ta'kidlaydi [5].

O'zbekiston Respublikasida dunyoviy va diniy ta'lim tizimi muayyan normativ-huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga binoan ta'limning bir nechta turlari ajratilgan bo'lib, ular maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limdan keyingi bosqichlargacha bo'lgan uzluksiz tizimni tashkil etadi. Bu esa jamiyatda bilimdon, ma'naviy yetuk hamda malakali

mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Umumiy oʻrta taʼlim yetti yoshdan boshlab umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida uzluksiz ravishda tashkil etilib, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tizimi dinlardan ajratilgan boʻlib, oʻquv dasturlariga diniy fanlarni kiritishga ruxsat etilmaydi. Fuqarolarning dunyoviy taʼlim olish huquqi ularning diniy qarashlaridan qatʼi nazar kafolatlanadi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi qonun diniy sohani tartibga soluvchi muhim hujjat sifatida namoyon boʻldi. Mazkur qonun diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini belgilab berish bilan birga, diniy taʼlim faoliyatini ham qonuniy asosda yoʻlga qoʻyishga xizmat qildi. Shu asosda diniy taʼlim muassasalarini roʻyxatdan oʻtkazish, ularning faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish mexanizmlari shakllandi [6].

Diniy taʼlim muassasalari, tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilganligi ularning fuqarolik jamiyatida mustaqil institut sifatida faoliyat yuritishini anglatadi. Shu sababli, ularning davlat va boshqa ijtimoiy institutlar bilan oʻzaro aloqalari hamda tutgan oʻrnini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy taʼlim faoliyati tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Unga koʻra, diniy taʼlim bilan shugʻullanish uchun amaldagi qonunchilikka rioya qilish, oʻquv jarayonini vakolatli organlar bilan kelishilgan dastur va rejalarga muvofiq tashkil etish, voyaga yetmaganlarni majburan oʻqitmaslik, shuningdek, zoʻravonlik, ekstremistik gʻoyalar va missionerlik faoliyatini targʻib qilmaslik talab etiladi. Bundan tashqari, taʼlim jarayonida millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik va maʼnaviy qadriyatlarga putur yetkazuvchi holatlarga yoʻl qoʻymaslik zarur. Diniy fanlarni oʻqitish tegishli diniy maʼlumotga ega boʻlgan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi hamda ular muntazam attestatsiyadan oʻtkaziladi. Shuningdek, oʻquv jarayonida litsenziyaga ega adabiyotlardan foydalanish belgilangan.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar davlat roʻyxatidan oʻtkazilib, litsenziya asosida ish olib boradi. Diniy taʼlim muassasalariga qabul umumiy oʻrta taʼlimni tugatgandan soʻng amalga oshiriladi. Xususiyl tartibda diniy taʼlim berish qonunchilik bilan cheklangan. Shu bilan birga, diniy taʼlim muassasalarida dunyoviy fanlarni oʻqitish ham majburiy hisoblanadi. Hozirgi paytda mamlakatimizda 4 ta oliy islom taʼlim muassasasi, 10 ta oʻrta maxsus islom taʼlim muassasasi, shu jumladan 2 ta ayollar madrasasi, shuningdek provaslav va protestant seminariyalari faoliyat koʻrsatmoqda [7]. Jamiyatda diniy bilim olishga boʻlgan ehtiyoj yuqori boʻlsa-da, mavjud taʼlim qamrovi barcha talabni toʻliq qondira olmayapti. Bu holat ayrim shaxslarning norasmiy yoki xorijiy diniy taʼlim manbalariga murojaat qilishiga sabab boʻlmoqda. Natijada, baʼzan diniy qarashlarda turli yot gʻoyalarning paydo boʻlishi, diniy va dunyoviy

muvozanatni anglashdagi muammolar kuzatilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar diniy-ma'rifiy sohada samaradorlikni oshirish va malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu asosda qabul qilingan qarorlar diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini ta'minlash, yoshlarni sog'lom dunyoqarash ruhida tarbiyalash hamda jamiyatda bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mavzuni tarixiylik va mantiqiylik uslublarida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. O'zbekistonda diniy ta'lim sohasida davlat siyosatini to'g'ri anglash uchun, avvalo, uning tarixiy shakllanish bosqichlarini izchil tahlil qilish zarur. Markaziy Osiyo hududi qadimdan ilm-fan va diniy tafakkur markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasi davrida bu hududda diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi asosida rivojlangan ta'lim tizimi shakllandi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi markazlarda faoliyat yuritgan madrasalar nafaqat diniy, balki mantiq, falsafa, matematika va tibbiyot kabi fanlarni ham o'qitgan. Bu esa diniy ta'limning keng qamrovli va integrativ xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Keyingi tarixiy bosqichda, xususan, sovet davrida diniy ta'lim tizimi keskin cheklab qo'yildi. Diniy muassasalar faoliyati nazorat ostiga olinib, ko'plab madrasalar yopildi, diniy bilimlarni o'rganish imkoniyatlari toraytirildi. Natijada jamiyatda diniy savodxonlik darajasi pasayib, diniy qadriyatlar ma'lum darajada chekinishga yuz tutdi. Bu holat mustaqillikdan keyingi davrda diniy ta'lim tizimini qayta tiklash va rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, diniy sohada tub burilish yuz berdi. Yangi davlat siyosati doirasida vijdon erkinligi ta'minlanib, diniy tashkilotlar faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu jarayonda diniy ta'lim tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish dolzarb vazifaga aylandi. Bosh qomusimizda har bir fuqaroning vijdon erkinligi huquqi mustahkamlab qo'yildi. Bu esa diniy ta'limni rivojlantirishning asosiy konstitutsiyaviy poydevorini yaratdi. Mantiqiy jihatdan olib qaralganda, davlat siyosatining keyingi bosqichi ta'lim tizimini umumiy tarzda isloh qilish bilan chambarchas bog'liqdir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan mamlakatda uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi va uning dunyoviy xarakteri mustahkamlandi. Ushbu yondashuv diniy va dunyoviy ta'limning aniq chegaralarini belgilab berdi: davlat ta'lim muassasalarida diniy fanlar o'qitilmaydi, diniy ta'lim esa maxsus diniy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Bu esa jamiyatda konfessiyalararo muvozanatni saqlash va ta'lim tizimining yagona standartlar asosida rivojlanishini ta'minlashga xizmat qildi. Keyingi bosqichda diniy ta'lim sohasida institutsional mexanizmlar shakllantirildi. Diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organlar, xususan, Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, diniy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va dasturlarini kelishish,

kadrlar tayyorlash tizimini nazorat qilish kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu jarayon diniy ta'lim sifatini oshirish va uning mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qildi. So'nggi yillarda diniy ta'lim sohasida davlat siyosati yanada takomillashib, yangi bosqichga ko'tarildi.

Ayniqsa, globallashtirish sharoitida yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar, ekstremizm va radikalizm xavfi diniy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirishni talab etdi. Shu munosabat bilan diniy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlar ongida sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifaga aylandi. 2018-2025-yillarda diniy-ma'rifiy sohani tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim qaror va farmonlarning qabul qilinishi ushbu yo'nalishda yangi davrni boshlab berdi. Jumladan, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi vazifalar belgilandi. Bu esa diniy ta'lim tizimini nafaqat milliy, balki global miqyosda raqobatbardosh darajaga olib chiqishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda diniy ta'lim sohasida davlat siyosati tarixiy taraqqiyot davomida bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda puxta nazariy-huquqiy asosga ega tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning mantiqiy rivoji diniy erkinlikni ta'minlash, ta'limning dunyoviylikini saqlash va jamiyatda bag'rikenglik muhitini mustahkamlash kabi o'zaro bog'liq tamoyillarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida diniy ta'lim tizimining institutsional asoslari mamlakatda vijdon erkinligini ta'minlash, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash hamda jamiyat barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tizim o'zaro bog'liq bo'lgan davlat organlari, diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Institutsional yondashuv diniy ta'limni tartibga solish, nazorat qilish va rivojlantirishning aniq mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi.

Diniy ta'lim tizimini boshqarishda muhim o'rin tutuvchi asosiy davlat organlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita hisoblanadi. Ushbu organ diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, diniy ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish hamda o'quv dasturlarini kelishish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, qo'mita diniy sohada davlat siyosatini amalga oshirishda markaziy institut sifatida faoliyat yuritadi. Adliya vazirligi ham diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularning huquqiy faoliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur vazirlik tomonidan diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalarining ustavlari ko'rib chiqiladi, ularning qonunchilikka muvofiqligi tekshiriladi hamda litsenziya asosida faoliyat yuritishiga ruxsat beriladi. Bu jarayon diniy ta'lim sohasida qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Diniy ta'lim tizimining institutsional tuzilmasida diniy ta'lim muassasalari alohida

o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda diniy ta‘lim muassasalari o‘rta maxsus va oliy bosqichlarga bo‘linadi. O‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasalari – madrasalar, oliy diniy ta‘lim muassasalari esa institut va akademiyalar shaklida faoliyat yuritadi.

Ularning asosiy vazifasi diniy bilimlarni chuqur o‘rgatish, malakali kadrlar tayyorlash hamda diniy-ma‘rifiy faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Xususan, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish maqsadida tashkil etilgan oliy ta‘lim muassasalari zamonaviy ta‘lim standartlari asosida faoliyat olib boradi. Ushbu muassasalarda nafaqat diniy fanlar, balki tarix, falsafa, axborot texnologiyalari kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitiladi. Bu esa bitiruvchilarning keng qamrovli bilimga ega bo‘lishini ta‘minlaydi hamda ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Diniy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasi ham muhim institutsional yo‘nalishlardan biridir. Bu borada o‘qituvchilarning professional tayyorgarligi, ularning bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borish zarur hisoblanadi. Shu maqsadda maxsus kurslar, seminarlar va malaka oshirish dasturlari tashkil etiladi.

Natijada diniy ta‘lim sifatini oshirish va uning samaradorligini ta‘minlashga erishiladi. Diniy ta‘lim tizimining institutsional asoslari faqat davlat organlari bilan cheklanib qolmaydi, balki fuqarolik jamiyati institutlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Jumladan, mahalla institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari diniy-ma‘rifiy faoliyatni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali jamiyatda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi g‘oyalar keng yoyiladi. Shu bilan birga, diniy ta‘lim tizimida xalqaro hamkorlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston turli xalqaro tashkilotlar va xorijiy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ilg‘or tajribalarni o‘rganish va joriy etishga intilmoqda. Bu esa diniy ta‘lim tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashuviga xizmat qiladi. Institutsional asoslarning yana bir muhim jihati – bu diniy ta‘lim ustidan nazorat va monitoring tizimining mavjudligidir. Mazkur tizim orqali diniy ta‘lim muassasalarining faoliyati doimiy ravishda tahlil qilinadi, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi hamda ta‘lim sifati oshiriladi. Bu esa diniy ta‘lim sohasida shaffoflik va samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Demak, O‘zbekistonda diniy ta‘lim tizimining institutsional asoslari kompleks va ko‘p bosqichli tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim davlat organlari, diniy tashkilotlar va ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik asosida shakllanib, diniy ta‘limni samarali tashkil etish, uning sifatini oshirish hamda jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda diniy ta‘lim sohasining tashkiliy asoslari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, u jamiyatda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash, yoshlar tarbiyasini kuchaytirish hamda diniy-ma‘rifiy sohani zamonaviy talablar asosida

rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimning tashkiliy jihatlari diniy ta'lim muassasalarining faoliyatini tartibga solish, o'quv jarayonini tashkil etish, kadrlar tayyorlash va nazorat mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Diniy ta'limni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri uning qonuniy asoslarda amalga oshirilishidir.

O'zbekiston Respublikasida diniy ta'lim faqatgina davlat tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim jarayonining shaffofligi, qonuniyligi va sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Diniy ta'lim muassasalari faqatgina litsenziya asosida faoliyat yuritadi va ularning o'quv dasturlari vakolatli organlar bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Tashkiliy jihatdan diniy ta'lim muassasalari o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlariga bo'linadi. O'rta maxsus diniy ta'lim muassasalari asosan boshlang'ich diniy bilimlarni berishga yo'naltirilgan bo'lsa, oliy diniy ta'lim muassasalari chuqur ilmiy va nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu bosqichlar o'zaro uzviy bog'langan holda yagona ta'lim tizimini tashkil etadi. Diniy ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv rejalari va dasturlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar diniy va dunyoviy fanlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, talabalarning keng qamrovli bilimga ega bo'lishini nazarda tutadi. Jumladan, diniy fanlar bilan bir qatorda tarix, falsafa, axborot texnologiyalari va tilshunoslik kabi fanlar ham o'qitiladi. Bu esa bitiruvchilarning zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Tashkiliy asoslarning yana bir muhim yo'nalishi bu kadrlar tayyorlash tizimidir. Diniy ta'lim sohasida malakali o'qituvchilarni tayyorlash va ularning bilim darajasini muntazam oshirib borish muhim vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda maxsus malaka oshirish kurslari, seminarlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etiladi. Bu jarayon diniy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Diniy ta'lim sohasining rivojlanish yo'nalishlaridan biri bu uning modernizatsiya qilinishi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish va interaktiv o'qitish usullarini keng qo'llash diniy ta'lim tizimining samaradorligini oshirmoqda. Bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Shuningdek, diniy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston turli xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, diniy ta'lim sohasida ilg'or tajribalarni o'rganmoqda va amaliyotga joriy etmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimini global standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Diniy ta'limning tashkiliy asoslarida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Mahalla tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari diniy-ma'rifiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi. Ular orqali jamiyatda diniy bag'rikenglik, ijtimoiy totuvlik va ma'naviy barqarorlik mustahkamlanadi. Diniy ta'lim tizimining rivojlanishida yoshlar bilan ishlash alohida o'rin tutadi.

Yosh avlodni sogʻlom diniy dunyoqarash asosida tarbiyalash, ularni turli yot gʻoyalar taʼsiridan himoya qilish va maʼnaviy jihatdan barkamol etib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Bu borada diniy-maʼrifiy targʻibot ishlari muntazam olib borilmoqda. Shu bilan birga, diniy taʼlim sohasida axborot xavfsizligini taʼminlash ham dolzarb vazifalardan biridir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan turli diniy mazmundagi notoʻgʻri maʼlumotlarga qarshi kurashish, aholining diniy savodxonligini oshirish zarur hisoblanadi. Bu esa diniy taʼlim tizimining tashkiliy jihatdan yanada mustahkamlanishini talab etadi. Diniy taʼlim sohasining istiqbolli yoʻnalishlaridan yana biri bu ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishdir. Diniy va dunyoviy bilimlar integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish va ularni taʼlim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa diniy taʼlim tizimini innovatsion rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Umuman olganda, Oʻzbekistonda diniy taʼlim sohasining tashkiliy asoslari murakkab va koʻp bosqichli tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim davlat organlari, taʼlim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida shakllanib, diniy taʼlim sifatini oshirish, yoshlarni toʻgʻri yoʻnaltirish va jamiyatda barqarorlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Vijdon erkinligiga boʻlgan huquqni va Oʻzbekiston Respublikasi dunyoviy davlat ekanligiga oid konstitutsiyaviy qoidalarni roʻyobga chiqarish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplarini va ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, davlatchiligimiz rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan boʻlib, koʻpmillatli va koʻpkonfessiyali Oʻzbekistonda umumjamiyat manfaatlarini roʻyobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida oʻzaro totuvlikda yashash hamda izchil taraqqiy etish uchun zarur barqaror muhitni taʼminlash maqsadida 2025-yil 25-fevralda Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu Konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishiladi:

fuqarolarning xohlagan dinga eʼtiqod qilish yoki hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik boʻyicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

jamiyatda qonun ustuvorligi mustahkamlanadi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligi oshadi;

jamiyatda totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik muhiti mustahkamlanadi, yuzaga kelishi mumkin boʻlgan nizolarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish imkoniyati yaratiladi;

dunyoviylikni taʼminlashga doir qonunchilik yanada takomillashtiriladi, mavjud huquqiy boʻshliqlar va ziddiyatlar bartaraf etiladi;

dunyoviy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga to'siq bo'luvchi omillar minimallashtiriladi;

dunyoviy davlatda vijdon erkinligini ta'minlash shart-sharoitlari yaratiladi;

O'zbekiston Respublikasida davlat va konfessiyalar o'rtasida diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashga asoslangan munosabatlar modelini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtiriladi;

diniy va dinshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarining malakasini oshirishni nazarda tutadigan diniy sohada kadrlar tayyorlash tizimi takomillashadi;

diniy sohadagi davlat siyosatining axborot makonida tizimli ravishda yoritilishini ta'minlash uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi vakillarining hamkorlik mexanizmlari yaratiladi;

diniy masalalarni o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va ekspert-tahliliy loyihalarni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi [7].

Xulosa. Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqqan holda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni yanada yaxshilash, diniy ta'lim faoliyatini muvofiqlashtirish orqali kutilgan natijalarga erishish uchun quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surishni masadga muvofiq deb topdik:

1) O'zbekistonda diniy ta'lim sohasida davlat siyosati tarixiy tajriba va zamonaviy huquqiy asoslar uyg'unligida shakllangan bo'lib, u jamiyatda vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2) Diniy ta'lim tizimi davlatdan ajratilgan holda faoliyat yuritadi va uning huquqiy asoslari Konstitutsiya, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

3) Institutsional jihatdan diniy ta'lim tizimi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Adliya vazirligi va tegishli diniy ta'lim muassasalari orqali boshqarilib, ularning faoliyati qat'iy litsenziyalash va nazorat mexanizmlariga asoslanadi.

4) Diniy ta'lim sohasida o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari orqali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda diniy va dunyoviy bilimlarning uyg'unligi ta'minlanmoqda.

5) Soha rivojlanishida modernizatsiya, xalqaro hamkorlik va yoshlar tarbiyasiga yo'naltirilgan ma'rifiy ishlar muhim o'rin tutadi, bu esa jamiyatda ekstremizm va radikalizmga qarshi barqaror immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

- diniy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini yanada takomillashtirib, diniy va dunyoviy fanlar integratsiyasini kuchaytirish;

- diniy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish metodlarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish;
- malakali diniy kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, o'qituvchilarni muntazam qayta tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- yoshlar o'rtasida diniy-ma'rifiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot va profilaktik ishlarni kengaytirish, norasmiy ta'lim manbalarining salbiy ta'sirini kamaytirish muhim;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirib, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy tizimga moslashtirish orqali diniy ta'lim tizimini yanada modernizatsiya qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 / lex.uz/docs/-6445145
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. www.lex.uz
3. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, to'rtinchi jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.27
4. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, ikkinchi jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.195
5. Abu Lays Samarqandiy. Bustonul orifiyn. <https://islom.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni. lex.uz/docs/-5491534
7. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qonuni. 25.02.2025, O'RQ-1037-son / lex.uz/docs/-7404923